



“O‘TKAN KUNLAR” ROMANINING ILK NASHRLARI QIYOSI
(“Inqilob” jurnali va 1925-yil nashrlari)

Polvonova Xurshida Abdusattarovna,
Andijon davlat universiteti katta o‘qituvchisi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15207063>

Annotatsiya. Maqolada A.Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanining ilk nashrlari (“Inqilob” jurnali va 1925-yil nashri) qiyoslanadi. Ulardagi farqlar sabablari tahlil qilinadi. Asl matn muammosiga ham e’tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: A.Qodiriy, “O‘tkan kunlar” romani, ilk nashr, asos matn, til va imlo masalasi.

Bizga ma’lumki, “O‘tkan kunlar” romanining ayrim boblari dastlab “Inqilob” jurnalida bosilgan, asarning birinchi bo‘limi kitob holida ilk bora 1925-yilda bosilib chiqqan.

Garchi adabiyotshunos olim Dilmurod Quronov bilan hammualliflikdagi maqolamizda (“Sharq yulduzi”, 2007, 1-son) “Inqilob” nashri haqida asosiy gaplar aytilgan bo‘lsa-da, “O‘tkan kunlar”ga qaytib” maqolasida” adabiyotshunos Bahodir Karimov: “Inqilob” jurnali bir-ikki marta tilga olinadi. Biroq kengroq qiyoslar, batafsilroq ma’lumotlar berilmaydi” deya bizga e’tirozlarini bayon qiladi [2. B. 233] Va asarning jurnal va kitob nashrlarini qiyoslash, tekshirish zaruriyati mavjudligini aytadi.

Aytish kerakki, qatag‘onga uchragan shoir va adiblarning, jumladan, Abdulla Qodiriyning ham shaxsiy arxivlari, asarlari qo‘lyozmalari saqlanib qolmagan. Tabiiyki, bu holat yozuvchi ijodiy laboratoriyasini o‘rganish, asarlarining yaratilish tarixini tadqiq etishda murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Shu bilan birga adib hayotligida amalga oshirilgan nashrlarni o‘rganish, ularni qiyoslash va barcha nashrlarga muhim nashr sifatida qarash ehtiyojini paydo qiladi. Asarning ilk kitob nashri 1925-yilda amalga oshiriladi va adib bu nashrdan u qadar ko‘ngli to‘lmaganini, keyingi nashrlariga ham umidsizlik bn qaraganini bilamiz. Lekin shu norozilik sababidan 1925-yil nashridan butunlay voz kechishimiz, e’tiborsiz qoldirishimiz ham adolatdan emas. “Inqilob” jurnali nashri ahamiyati haqida gapirgan B.Karim ham negadir maqolasidagi qiyoslashni asarning birinchi kitob nashri bo‘lgan 1925-yil bilan emas, balki 1926-yil nashri bilan amalga oshiradi. Adibning noroziligi sabablarini aniqlashtirish uchun ham, asarning ijodiy tarixi mukammal bo‘lishi uchun ham ilk kitob nashrini e’tiborsiz qoldirib bo‘lmaydi.



“O‘tkan kunlar” romani “Inqilob” jurnalida, 1923-yilning fevral-mart oyidagi 9-10 qo‘shma sonida muallif so‘zboshisi bilan e‘lon qilina boshlangan. Asarning dastlabki olti bobi jurnalning 9-10 qo‘shma sonida chop etilgan bo‘lsa, 1924 yilning 11-12 hamda 13-14 qo‘shma sonlarida jami 16 bobi nashr qilinadi. Jurnalning “yotish vaqti” ya‘ni yopilishi haqida Ziyoy Said 1924-yil oktabr oyi ekanligini aytadi.[3.86]

20- yillar matbuotida gazeta va jurnallarning aksariyati moliyaviy imkonsizlik vajidan ham muassislarni almashtirishga yoki yopilishga majbur bo‘lishgan. “Inqilob” jurnalining ham 1922-yildan to 1924-yilgacha muassislarni bir necha bor o‘zgarganligiga va alal oqibat yopilganligiga guvoh bo‘lamiz. Jurnalning yopilishi bilan “O‘tkan kunlar” romanining bosilishi ham to‘xtaydi.

Bundan tashqari, jurnal nashrida ham, 1925-yil nashri amalga oshirilgan vaqtda ham til islohotlari o‘tkazilayotgan va ziyolilar o‘rtasida o‘zaro til va imlo masalasida bahslar kuchaygan paytlar edi. Fitrat boshchiligidagi “yangi imlochilar” o‘zbek adabiy tilidagi ayrim forsiy va arabiy so‘zlarni qadimiy turkiy so‘zlarga almashtirish va o‘zbek tilining sofligi uchun kurashishni o‘zlariga maqsad o‘laroq belgilab olishadi va ana shu maqsad yo‘lida faoliyat olib borishadi. 1919-yilda tashkil etilgan “Chig‘atoy gurungi” ham bu yo‘lda bir qancha vazifalarni, jumladan, “Ilmimizning adabiyliги arabiylikda emas, o‘zidadir, shuni tirgizmak kerak. Tilimiz qoidalarini totorcha va usmonlicha qoida kitoblaridan emas, tilimizning o‘zidan olmoq kerak. Adabiyot yozu(v)chilik bo‘lg‘ani uchun yozu(v) qoidalarini, imloni ham tuzatmak kerak” kabilarni belgilab oladi.[4.135] Ammo Fitratga va uning tarafdori bo‘lgan ziyolilarga qarshi ikkinchi guruh ham bor ediki, ular turk tili va turk ta‘lim tizimiga katta ahamiyat qaratishar edi. Munavvar qori Abdurashidxonov boshchiligidagi ziyolilar Fitratning o‘zbek milliy madaniyatini tiklash, o‘zbeklarning mustaqil millat sifatida shakllanishi, o‘zbek tilining sofligini saqlash haqidagi g‘oyalariga qarshi bo‘lganlar. Adabiyotshunos olim Naim Karimovning yozishicha, “Munavvar qorining tarafdorlari xatto Fitratga suiqasd qilmoqchi ham bo‘lishgan”.[5. 40]

Tabiiyki, til va imlo masalasida millat ziyolilarining hayot-mamot jangi ketayotgan bunday sharoitda har bir nashriyotning, gazeta va jurnalning o‘z imlo qoidalari mavjud edi, desak yanglishmagan bo‘lamiz. “O‘tkan kunlar” romanining ilk nashri amalga oshirilgan “Inqilob”da ham muharririyat “jurnal yozuvchilari ham imlo masalasida ikkiga ayrildi. Kelgusi qurultoygacha “Inqilob” jurnalini o‘rta imlo bilan chiqarilib turilmoqqa qaror berildi...



...Shuning uchun yuboriladigan maqol va she'rlar o'rta imlo bilan yozilsa va yangicha yozib idorani mashaqqatga solinmasa edi", deya o'z mualliflarini ogohlantiradi.[3.85]

“Inqilob” nashri hamda 1925 yil nashrlari haqida, xususan roman boblarining nomlanishi bilan bog‘liq ma‘lumot va tahlillarga avvalgi maqolalarimizda batafsil to‘xtalganimiz uchun ham bu boradagi fikrlar takroridan qochamiz.[1.139]

Romanning jurnal nashridagi 1-bobida (romanning jurnal variantida ham, 1925-yil nashrida ham 7- bobigacha nomlanmay, faqat raqamlab ketilgan) Ziyo shohichining o‘g‘li Rahmat tog‘asi Homid bilan Otabekni yo‘qlab keladi va ularni kutib olish chog‘idagi suhbatda:

“Otabek, buni deguvchi Rahmatga qarab yoqimlik bir vaziyat oldi va:

— Tinchsizlamadingiz, quvontirdingiz, **og‘alarim**. Shahringizga birinchi martaba kelishim bo‘lg‘ani uchun tanishsizlik, yolg‘izlik mani ortuq zeriktirgan edi! - dedi” (21-b) jumalari 1925-yil nashrida ham aynan takrorlanadi, tinish belgilarini qo‘llashda ham bir xillik saqlanadi, faqatgina jurnal variantida “ Rahmatga” so‘zida qo‘llangan jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi “-ga” “-ka” shakliga o‘zgartirilgan.

1926 yil nashrida esa quyidagicha tahrirlanadi: “Otabek ularga yuqoridan joy ko‘rsatar ekan, yoqimlik bir vaziyatda:

Tinchsizlamadingizlar, bil‘aks quvontirdingizlar, dedi – shahringizga birinchi martaba kelganim uchun tanishsizlik, yolg‘izlik meni juda zeriktirgan edi”.

Ko‘rib turganimizdek, 1926-yil nashrida jumalar jiddiy tahrirga uchragan.Dastlabki ikkita variantda bir xil takrorlangan Otabekning faqat Rahmatga qarab “*yoqimlik bir vaziyat olishi*” Rahmatning hamrohiga nisbatan bepisandlikka o‘xshash holatni paydo qilsa, keyingi jumladagi “*tinchsizlamadingiz, quvontirdingiz, og‘alarim*” deyishi yuqoridagi jumla bilan kontrast holatni yuzaga keltiradi, ya‘ni o‘quvchi sal oldin tanigani “boshqacha yaratilish”dagi “og‘ir tabiatlik” Otabekga nisbatan biroz ishtiboh tug‘dirgan bo‘lard. Og‘ir tabiatlik Otabekning o‘ziga u qadar yaqin bo‘lmagan “ota qadrdonining” o‘g‘li va mutlaqo begona bir insonga hayajon bilan “og‘alarim” deya murojaat qilishi ham biroz erish tuyuladi. Tahrir qilinganidan so‘ng Otabekni “ularga yuqoridan joy ko‘rsatish” asnosida mehmonlar tashrifidan mamnun bo‘lgan yoqimli bir vaziyatda ko‘ramiz va tahrir natijasida Otabek so‘zidan keyingi vergulning o‘rinsiz qo‘llanishiga ham barham beriladi. “*Tinchsizlamadingizlar, bil‘aks quvontirdingizlar*” jumlasiga “-lar” ko‘plik qo‘shimchasini va “*bil‘aks*” so‘zi qo‘shilgani, shuningdek, “*og‘alarim*” so‘zining va



jumla oxiridagi undov belgisining tushirib qoldirilgani tahrirning badiiy jihatdan yutug‘ini ta‘minlaydi.

Asarning birinchi bobida Hasanalining tarixi haqida hikoya qilinadi: “Hasanalini, bolaliq vaqtida Otabekning bobosi **Musobek**, Erondan kishi o‘g‘irlab kelguchi bir turkman qo‘lidan 15 **oltun** barobariga sotub olg‘an edi. Hasanalining Otabeklar oilasida qulliqda bo‘lg‘anig‘a **qirq besh-elli** yillar chamasi bir vaqt o‘tib, endi Otabeklar oilasining chin bir a‘zosi kabi bo‘lib ketkan. Hasanali Yusufbek hojiga, ayniqsa, Otabekka itoat va ixlosi favqulodda bo‘lib, buning evaziga ulardan ham ishonch va hurmat ko‘rar; Yusufbek hoji “Ota” deb, Otabek, “ota” deb chaqirar edilar”.

Bu parcha ham dastlabki ikki variantda bir xil keltiriladi. 1926 yil nashrida esa Otabekning bobosi Musobek ekanligi aytilmaydi, “15 oltun barobariga” jumlasidagi “oltun” so‘zi “**tillo**”ga almashtiriladi, “qirq besh-elli yillar chamasi vaqt o‘tib” jumlasini ham “**elli yillar chamasi zamon o‘tib**” deb tahrirlanadi. Hasanalining “itoat va ixlosi” haqida gap ketgandagi “favqulodda” so‘zi “itoat va ixlosi tom”ga almashtiriladi. “**Yusufbek hoji “ota” deb, Otabek, “ota” deb chaqirar edi**” jumlasini esa tahrirlanib, asardan butunlay olib tashlanadi.

Aynan shu parchadagi tahrir haqida B.Karimov ham fikr bildirib, Otabekning bobosi uchun Qodiriy bejizga Musobek ismini tanlamaganini, qahramonlariga payg‘ambarlar nomini berish orqali ularga salobat bag‘ishlash va toza insonlar ekaniga ishora ekanligiga urg‘u beradi. Musobek ismining 1926 yil nashridan tushib qolishini esa “din va diniy ismlar inkori boshlangan yangi davrda adib qahramonlari nomini ham “o‘zbek tarixining hazmi ko‘targan qadar” olishga majbur bo‘ladi”, deya izohlaydi. Bizningcha esa, Qodiriy tahrirda Musobek ismini keltirmasligiga sabab asarning ortiqcha tafsilotlardan xoli bo‘lishini istagan, xolos. Qodiriy “O‘qush – o‘rganish (Mayda hikoyalar yozganda so‘zni qanday tejash kerak)” maqolasida Chexovning “Buqalamun” hikoyasini tahlil qilar ekan, “uning hikoyalarida so‘z isrofgarchiligiga sabab bo‘laturg‘an ortiqcha detallar ham bo‘lmaydi. U butun detallarni o‘zi aytgan asosda ishlatadi”, degan fikrni aytadi va Chexovning o‘zidan iqtibos keltirib fikrini dalillaydi: “Birinchi ko‘rinishda miltiq bo‘lsa, shu miltiq uchinchi yoki to‘rtinchi ko‘rinishda albatta otilishi kerak, yo‘qsa miltiq to‘g‘risida so‘zlashning hojati yo‘qdur”. [6.844] Adibning o‘zi ham so‘z tejash, ularni o‘rinli qo‘llash masalasiga Chexovdan-da ko‘proq ma‘suliyat bilan yondashgan. Otabekning bobosi ham asarda katta bir badiiy yuk ko‘tarmaydi, romanning boshidagi boblarida personajlar tilidan bir-ikki o‘rinda eslab o‘tib ketiladi, u romanda alohida badiiy

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



vazifa bajarmaydi va bajarishi ham kutilmaydi, shunga ko‘ra uning ismi konkretlashishi ham shart bo‘lmay qoladi.

Hasanalining Otabeklar xonadonida bo‘lishi bilan bog‘liq sana ham “*qirq besh-ellik yillar chamasi*” shaklidan “*elli yillar chamasi*” ko‘rinishida tahrirlanadi.

Romanning sanalar bilan, personajlar yoshi bilan bog‘liq boshqa o‘rinlar ham 1925 yil nashridan keyin jiddiy tahrirlangani kuzatiladi.

Masalan, “Inqilob jurnali 2- bobning boshlanishida “Ziyo shohichining tanishdirg‘on kishilaridan Mirza Karim qutidor ismli 45 yoshlar chamasida qoraqosh, qorako‘z, ko‘rkam yuzlik yaxshigina kiyingan bir kishi bo‘lub Akram hojisi, *ellik bilan oltmish yoshlar orasidag‘i* bir keksa edi” jumlasida qutidorning yoshi raqam bilan, Akram hojining yoshi esa so‘z bilan “*ellik bilan oltmish orasidagi*” qariya deb yoziladi. Va bu jumla 1925-yil nashrida ham o‘zgarmasdan qoladi.

1926-yil nashrida esa tahrir qilinib, “Mirzakarim ismlik **qirq besh, elli yoshlar chamasida** qora qosh, qora ko‘z, ko‘rkam yuz, yaxshig‘ina kiyingan bir kishi bo‘lib, Akram hoji **elli besh yoshlar orasidag‘i** bir keksa edi” deb tahrir qilinadi va ancha konkretlashtiriladi.

Hasanalining “itoat va ixlosi” haqida gap ketgandagi “favqulodda” so‘zi “itoat va ixlosi tom”ga almashtirilganini aytdik. Bu tahrir ham asar badiiyati uchun ijobiy bo‘lgan deyishimiz mumkin, chunki “favqulodda” so‘zi qo‘llanganda undan oldingi gapdagi “Otabeklar oilasida qulliqda bo‘lg‘anig‘a elli yillar chamasi zamon o‘tib, endi Otabeklar oilasining chin bir a‘zosi bo‘lib ketkan” degan fikr shubha ostida qolar edi, ya‘ni u haliyam o‘zining qullik maqomini unutmagan va uning ixlosi ham ana shu g‘ayrishiuriiy itoat natijasi o‘laroq namoyon bo‘lmoqda. “Itoat va ixlosi tom bo‘lishi” esa Hasanali tomonidan to‘liq anglangan va oila a‘zolari tomonidan ham ozod va erkin bir insonga ko‘rsatilayotgan samimiy muomalaga javob sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Tahrirdan tushirib qoldirilgan “Yusufbek hoji “ota” deb, Otabek, “ota” deb chaqirar edi” jumlasida esa shuncha itoat va ixlosga javoban faqat “Ota” deb murojaat qilish bilan cheklanish kitobxon nazdida Hasanaliga go‘yoki, marhamat ko‘rsatishayotgandek taassurot uyg‘otadi. Bundan tashqari jumla tuzilishining o‘zida ham g‘alizlik va takror mavjud bo‘lib, hikoya maromini buzadi. Shuning uchun ham tahrirda yuqoridagi jumladan voz kechilgani asarning foydasiga bo‘lgan deb ayta olamiz.



Romanning ilk ikki nashrini kuzatar ekanmiz, asar badiiyati bilan bog‘liq o‘zgarishlarni deyarli uchratmaymiz. “Inqilob” jurnali imlosi o‘rta imloda bo‘lib, arabiy, forsiy so‘zlarni yozishda shakliy yozuv tamoyiliga amal qilinganini, ya‘ni asliyatida qanday yozilgan bo‘lsa shunday yozilganini, qisqa unlilarni yozuvda ifoda etilmagani va punktuatsion belgilardan deyarli foydalanilmaganini, qo‘llangan holatlarda ham birmuncha xatoliklar mavjudligini, shuningdek, singarmonizmga amal qilinmaganligini ko‘ramiz. 1925-yil nashrida esa yangi imloga xos bo‘lgan qisqa unlilar yozuvda ifodalangan, masalan, qisqa “A” harfini ifodalashda “alif”, ba‘zi o‘rinlarda esa “hoi havvaz”dan foydalanilgan. Qodiriy savod chiqargan paytlarda esa “alif”ning yozuvda aks etishi “O” harfini anglatgan yoki cho‘ziq “a” harfini bildirgan. Shuningdek, 1925-yil nashrida tinish belgilarining ko‘p o‘rinlarda noto‘g‘ri qo‘llanganligini va singarmonizmga amal qilinganini ko‘ramiz. Bizningcha, yozuvchining “Uzrnoma”sidagi “ imlosi uch-to‘rtta imlochilarimiz tomonidan tuzatilib (!) ajoyib bir quroq holiga keldi, musahhihlarimizning musohalalari orqasida texnika jihati ko‘z ko‘rib quloq eshitmagan bir yo‘sinda chiqdi” degan e‘tirozidan badiiyat tomonlari ilk nashri bo‘lgan “Inqilob” jurnalidan butunlay o‘zgarib ketgan ma‘noni anglamasligimiz lozim. Chunki kuzatishlarimiz natijasida bu ikkala nashrda muallifning asar badiiyati bilan bog‘liq tahrirlarini uchratmadik. Shuning uchun ham muallifning e‘tirozini imlodan norozilik sifatida qabul qilishimiz kerak. Va aynan muallifning asar imlosidan noroziligi oqibatida 1926-yil nashridagi jiddiy badiiy tahriri amalga oshirildi.

Yozuvchining 1924-yilning yozida Moskvaga ketib, u yerda Valeriy Bryusov nomidagi SSSR Davlat Jurnalistlar institutining Oliy Adabiyot kursida o‘qiganligi ko‘pchilikka ma‘lum. Xondamir Qodiriy o‘z xotiralarida yozuvchi bu tahsildan hech nima olmagan, qaytaga borib ko‘ngli buzilib kelgani haqida aytadi [6.858] Bizningcha esa, aynan mana shu tahsili natijasida yozuvchi dunyoqarashi, adabiyot haqidagi bilimlari kengaygan. Jahon adabiyoti namunalari va jahon adabiyotshunosligi bilan ham yaqindan tanishishga muvaffaq bo‘lgan va shuning natijasida “besh yillab bosila olmay yotgan” asariga boshqacha nigoh bilan qarashga va unga jiddiy badiiy tahrirlar kiritishga ehtiyoj sezgan, shuning natijasi sifatida 1926-yil nashrida muallifning birinchi jiddiy tahriri amalga oshirilgan.

Xondamir Qodiriy keltirgan ma‘lumotni esa Abdulla Qodiriyning Moskvada yozuvchi sifatida katta bilimga ega bo‘lganligi, ammo sermahsul ijod qila olmaganligi sababidan deb tushunishimiz to‘g‘riroq bo‘ladi.

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



Romanning ijodiy tarixini yaratishda, asarni kompleks o‘rganishda, yozuvchining adabiy portretini yaratishda adibning shaxsiy arxivi, asarlari qo‘lyozmalari saqlanib qolmagani vaziyatni birmuncha murakkablashtiradi. Adibning yaqinlari, zamondoshlari xotiralariga tayanishimiz mumkin, lekin ularga eng ishonchli manba sifatida to‘liq ishona olmaymiz. Bunday vaziyatda biz uchun yozuvchining o‘zidan qoldirgan adabiy, badiiy matnlari birlamchi manba sifatida ahamiyatli bo‘lib qolaveradi. Shu ma’noda, garchi muallif e’tiroziga sabab bo‘lgan bo‘lsa-da, 1925-yil nashri ham roman ijodiy tarixidagi muhim nashr sifatida o‘rganilishga va o‘zining munosib bahosini olishga haqli deb hisoblaymiz.

Romanning asos matnini yaratishda jurnal nashridan tortib, yozuvchi hayotlik chog‘ida amalga oshirilgan barcha nashrlar o‘rganilishi lozim. Ayniqsa, yozuvchi tiriklik vaqtidagi eng oxirgi nashr asos matnga ko‘proq da’vogarlik qiladi. Ana shu da’voning asoslariga keyingi ishlarimizda alohida to‘xtalamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Quronov D., Polvonova X. Mukammallik yo‘lida// Sharq yulduzi. – 2007. - №1. – B.139
2. Karim B. Abdulla Qodiriy fenomeni. – T.: Info Kapital Group, 2019. –B. 233
3. Said Z. Tanlangan asarlar. – T.: G‘ofur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at, 1974. – B. 86
4. Fitrat.Tanlangan asarlar. IV jild. Darslik, va o‘quv qo‘llanmalari, ilmiy maqola va tadqiqotlar. Toshkent, 2006. B. 135
5. Karimov N. “Chig‘atoy gurungi” o‘zbek yozuvchilarining birinchi ijodiy uyushmasi sifatida//O‘zbek tili va adabiyoti. – 2019. -№6. – B. 40
6. Qodiriy A. Tanlangan asarlar. – T.: Sharq, 2018.
7. Inqilob jurnali. (1923y. Fevral-mart, 9-10 soni.19-51 b)